TURK ELI

International Scientific Journal



Volume 1 | Issue 1 | 2026

Manas, Kyrgyz Republic

www.turkeli.science

TURK ELI
INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL

The journal is officially registered as a mass media outlet by the Justice Department of Manas Region under the Ministry of Justice of the Kyrgyz Republic in accordance with Registration Certificate No. 10339 dated March 11, 2024. The journal is registered under the title “TURK ELI” International Scientific Journal and is authorized for publication in Kyrgyz, Turkish, Uzbek, Kazakh and English languages.

Honorary President
Sarvar Ispahi

Editor-in-Chief
Jenishbek Duysheev

Deputy Editor in-Chief
Rahmonali Hasanov

Editorial Board:

Ablat Khodjaev (Prof. Dr.)
Shakimashrip Ibraev (Prof. Dr.)
Shohistahon Uljaeva (Prof. Dr.)
Kubanychbek Kalchakeev (Prof. Dr.)
Abdimajid Madraimov (Prof. Dr.)
Shukhrat Sattorov (Prof. Dr.)
Ibrahim Kush (Dr.)
Faig Elekberli (Dr.)
Erdenebayar Nasanbat (Dr.)
Gulnara Anarbaeva (Dr.)
Nurgul Aldabek (Dr.)
Nurjamal Myrzabaeva (Dr.)
Takhirjan Kazakov (Dr.)
Elmira Hazratkulova (Dr.)
Azamat Kaliev (Dr.)
Abdulvakhidkhon Nuriddinov (Dr.)

Technical Editor
Laziz Baxtiyorov

Publisher: turkeli.science
E-mail: editor@turkeli.science

Contents

N.Erdenebayar **B.Jargalsaikhan**	Skiing Tradition of Altai Uriankhai	**4**
E.A.Avazov **Zh.A.Duisheev**	The Andijan Uprising of 1898: Main Issues of Discussion in the Historiography of the Colonial and Soviet Era	**7**
Sh.Kh.Sattarov	Service Diversification And Economic Efficiency	**13**
S.Dj.Saidova	Leadership Competence and Creativity in Managing Challenging Personnel in Higher Education Institutions	**16**
Kh.I.Mamadaliyev	Urban History of the Fergana Valley (1876–1924): A Case Study of Osh	**21**
A.B.Zuftarov	Development of The Service Sector in The Context of the Digital Transformation of Azerbaijan's Economy	**24**
I.K.Usarov **Sh.T.Karimova** **M.Y.Badalbayeva** **A.A.Beknazarov** **Sh.T.Uljayeva**	Enhancing Students' Lexical Competence Through Systematic Use of Authentic Texts: a Task-based and Corpus-supported Methodology	**29**
B.R.Karimov	Challenges in the Development of Turkic Civilization Languages: Perspectives on the Formation of a Common Turkic Language and a Unified Turkic Script System	**32**
N.Juraev	The Philosophy of the Soul and the Heart in Ibn Sina's Thought	**35**
N.Nazarov	Interethnic Relations and Societal Development in Central Asia	**42**
Kh.J.Barotova	The Representation of Nature in the Epic Farhod and Shirin	**46**
Sh.Kh.Buriev	Conservation of Museum Objects and the Preservation of Historical Memory: A Key Factor in Societal Development (The Case of Uzbekistan, 1991–2025)	**50**
K.M.Gulomova	Scientific and Pedagogical Foundations of Fostering Independent Thinking in Higher Education Students	**53**
D.S.Saparboeva	Organizing Didactic Games in Primary Education	**56**
İ.H.Cəbrayılov	Contemporary Approaches to History Education: Challenges of Learning and Teaching	**58**
O.Musaev	Peculiarities of National Policy Implementation in Multinational Countries	**62**
E.Sultanova **R.Hasanov**	The Organization of Turkic States: A Significant Political Actor on the Global Stage	**66**
O.Musaev **Z.Murodova**	The Historical Development of International Relations and the Processes of Their Transformation	**70**
R.Yarkulov	Mechanisms for Improving Students' Creative Engagement through Digital Technologies: A Case Study of the Logistics Education Program	**74**
R.Hasanov	The Person of Amir Temur and His Martyr Art and State Administration	**79**
R.Khalikova	Amir Temur's Personality and Political Activities as Reflected in Historical Sources	**81**

The Organization of Turkic States: A Significant Political Actor on the Global Stage

Sultanova Etibor (Doctor of Political Sciences, Professor)[1]
esultanova@uwed.uz
Hasanov Rakhmonali (Candidate of Sciences (History), Professor)[2]
raxmonali.xasanov@uztitu.uz | ORCID: 0009-0007-6026-4031
[1.] University of World Economy and Diplomacy
Tashkent, Uzbekistan
[2.] Tashkent University of Economics and Technologies
Tashkent, Uzbekistan

Abstract.
The article examines the role of the Organization of Turkic States as a leading political actor in the international arena, focusing on the analysis of documents adopted step by step, summit meetings, the process of institutionalization of the organization, its structures with an international scope, as well as bilateral relations betweyen Uzbekistan and Turkey within the framework of the Organization
Keywords: Organization of Turkic States, international arena, political actor, institutional processes, foreign policy, national interests, new opportunitiyes, regional platform, interstate relations, regulatory and legal norms, strategic program, roadmap

Turkiy Davlatlar Tashkiloti – jaxon maydonidagi muhim siyosat subyekti sifatida

Sultonova E'tibor (siyosiy fanlar doktori, professor)[1]
esultanova@uwed.uz
Hasanov Raxmonali (tarix fanlari nomzodi, professor)[2]
ORCID: 0009-0007-6026-4031
[1.] Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti
Toshkent, O'zbekiston
[2.] Toshkent iqtisodiyot va texnologiyalar universiteti
Toshkent, O'zbekiston

Annotatsiya.
Maqola xalqaro maydondagi Turkiy Davlatlar Tashkilotini yetakchi siyosat subyekti sifatidagi roliga, bosqichma bosqich qabul qilingan xujjatlar, Sammitlar taxliliga, tashkilotning institutsiyalashuv jarayoniga, xalqaro mazmundagi tuzilmalarga, O'zbekiston va Tursiyaning Tashkilot doirasida o'zaro ikkitomonlama munosabatlariga bag'ishlangan.
Kalit so'zlar: Turkiy Davlatlar Tashkiloti, xalqaro maydon, siyosat subyekti, institutsional jarayonlar, tashqi siyosat, milliy manfaatlar, yangi imkoniyatlar, mintaqaviy platforma, davlatlararo munosabatlar, normativ-huquqiy me'yorlar, strategik Dastur, yo'l xaritasi.

Kirish. 21 asr insoniyatga turli misli ko'rinmagan bir biriga bog'liq bo'lgan ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy o'zgarishlar olib keldi. Ular, tabiiyki, halqaro munosabatlarda ham o'z aksini topmoqda. Endilikda muayyan maqsadga erishish uchun davlatlar xalqaro tashkilotlar doirasida jipslashib, faoliyatlarini olib borishlari muxim hisoblanadi.

O'zbekiston bugungi kunda turli davlatlar bilan o'z tashqi siyosatini ochiq va transparent tamoyil asosida ikki tomonlama xamkorlik olib borish bilan bir qatorda, ko'p tomonlama, jumladan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT), Mustaqil davlatlar hamdo'stligi (MDH), Shanxay hamkorlik tashkiloti (SHHT), Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti (IHT) Turkiy davlatlar tashkiloti (TDT) va boshqa qator xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar va tuzilmalar bilan xalqaro munosabatlarni olib boradi.

Mavzuning maqsadi, vazifasi va dolzarbligi

Hozirgi glaballashuv jarayonida Turkiy davlatlar o'rtasida strategik sheriklik, abadiy do'stlik va qardoshlik to'g'risidagi bitimni tezroq kelishib, qabul qilish, turkiy davlatlar tashkiloti –jaxon maydonidagi muhim siyosat subyekti ekanligini e'tirof etish eng muhim dolzarb masalalardani biridir

Shuni ta'kidlash joizki, turkiy davlatlar jahon arenasida yuksalayotgan kuch markazi sifatida shakllanishini ustuvor maqsad qilayotgan, Turkiy davlatlar tashkiloti to'g'risida fikr yuritishdan asosiy maqsad, uning xalqaro maydondagi bosqichma bosqich faoliyatini ko'rib chiqishdir.

Darhaqiqt,Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev, ta'kidlaganidayek, "Turkiy davlatlar o'rtasida strategik sheriklik,...qardosh xalqlarimizni yanada yaqinlashtirish, amaliy aloqalarni yangi bosqichga olib chiqishda mustahkam zamin bo'lib xizmat qiladi".

Bizning fikrimizcha,O'zbekiston tashqi siyosatida turkiy davlatlar bilan aloqalarni rivojlantirish orqali, bir tomondan, mintaqaviy birdamlikni kuchaytiradi, ikkinchi tomondan, yangi imkoniyatlar yaratishga asos soladi. Turkiy davlatlar tashkilotini boshqa xalqaro tashkilotlar, tuzilmalaridan farqini va o'ziga xosliklarini tadqiq qilish orqali kuyidagi fikr- mulohazalarimizni bosqichma -bosqich talqin etamiz.

Muhokoma.

Avvalom bor aytishimiz lozimki, Turkiy Davlatlar Tashkilotiga kirgan davlatlar umumiy tarixi, tili, madaniyati va an'analarining

yaqinligi asosida hamkorlik olib borishga asoslangan xalqaro tuzilma hisoblanadi. Bugungi kunda Turkiy Davlatlar Tashkiloti 5 ta a'zo – Ozarbayjon, Turkiya, Qirg'iziston, Qozog'iston, O'zbekiston va 2 ta kuzatuvchi – Vengriya va Turkmanistondan iborat [1]. O'zbekiston 2019 yilda mazkur Tashkilotga to'laqonli a'zo bo'lib kirdi. Bu davrgacha bo'lgan tarixiy jarayonlarga to'xtalsak. Ularni qisqacha ta'riflaymiz:

Birinchi bosqich. 1993 yilning mart oyida Turkiya Respublikasida barcha mustaqil turkiy tilli davlatlar rahbarlarining ishtirokida xalqaro konferensiya o'tkazildi va ekspertlar tomonidan aynan umumturkiy o'zlikni anglash uchun qo'yilgan ilk qadamlardan biri sifatida e'tirof etildi.

Ikkinchi bosqich. 1994 yil 18-19 oktyabr kunlari Istanbul shahrida turkiy davlatlar rahbarlarining ikkinchi sammiti bo'lib o'tdi. Mazkur sammit yakuni bo'yicha birinchi Istanbul deklaratsiyasi qabul qilindi. Ushbu deklaratsiyaning ahamiyati shundaki, davlat rahbarlari tomonidan endilikda integratsion vazifalarga to'xtalib o'tildi. Jumladan, tarix va madaniy merosning umumiyligini saqlab qolish, madaniyat, ta'lim soxasida xamkorlikni kuchaytirish, ommaviy-axborot sohasida hamkorlikni kuchaytirish zarurligi to'g'risida so'z yuritildi [2].

Uchinchi bosqich. Turkiy tilli davlatlar rahbarlar oliy darajadagi uchrashuvlarining mantiqiy davomi sifatida 1996 yil 21 oktyabrda Toshkentda navbatdagi sammit o'tkazildi. Tadbirning yakunlari bo'yicha qabul qilingan Toshkent deklaratsiyasining 16 - bandida Davlat rahbarlari uchrashuvi Kotibiyatini tuzish to'g'risida qaror qabul qilindi va shu bilan turkiy tilli davlatlarning institutsionallashuv jarayoniga qo'yilgan muxim dastlabki qadam bo'ldi.

To'rtinchi bosqich. Sekin asta institutsiyalashuv jarayoni davom etib, Turkiy tilli davlatlari 2009 yil 3 oktyabr kuni Ozarbayjonning Naxichevan shahrida o'tkazilgan 9-sammitida turkiy tilli davlatlarning xalqaro birlashma shaklidagi hamkorlik mexanizmi – "Turkiy tilli davlatlar hamkorlik Kengashi"ni (Turkiy Kengash) tuzishga qaror qildilar. 23 moddadan iborat bo'lgan ushbu xalqaro hujjatda Turkiy Kengashning maqsad va vazifalari, tuzilmasi, institutlari, moliyaviy asoslari, shuningdek, boshqa qator masalalar o'z aksini topgan. 2009-2021 yillar davomida Tashkilotga Turkiy Kengash nomi ishlatilgan.

Beshinchi bosqich. 2021 yilning 31 mart kuni "Turkiston – turkiy dunyoning ma'naviy poytaxti" mavzusida Tashkilotning norasmiy onlayn Sammiti o'tkazildi. Mazkur tadbirda davlatimiz rahbari quyidagi muhim tashabbuslarni ilgari surdi:

- Tashkilot doirasida Iqtisodiy hamkorlik strategiyasini ishlab chiqish;
- Turkiy taraqqiyot bankini tashkil etish;
- Turkiy investitsiya fondini tashkil etish jarayonini tezlashtirish;
- Tashkilotga a'zo davlatlarning muqaddas qadamjoylariga **"Tabarruk ziyorat"** (Muqaddas ziyorat) loyihasini amalga oshirish;
- Turkiy dunyo birligiga hissa qo'shgani uchun Alisher Navoiy nomidagi Xalqaro mukofotni ta'sis etish masalasi oldinga surildi.

Oltinchi bosqich. Turkiy davlatlar tashkiloti tarixida 2021 yil 12 noyabr kuni Istanbul shahrida bo'lib o'tgan Sammit muxim bo'ldi. Shu paytgacha Turkiy tilli davlatlar hamkorlik Kengashi yoki Turkiy Kengash sifatida nomlanib kelgan xalqaro tuzilma davlat rahbarlari qarori bilan rasman Turkiy davlatlar tashkilotiga aylantirildi. Shu bilan birga, Tash-kilotning 2040 yilgacha mo'ljallangan strategik dasturi qabul qilindi [3].

Endilikda Turkiy Davlat Tashkiloti doirasida to'rtta alohida xalqaro tuzilmalar: Xalqaro turkiy madaniyat tashkiloti (TURKSOY), Turkiy tilli davlatlar Parlament Assambleyasi (TurkPA), Xalqaro turkiy akademiya (XTA) va Xalqaro turkiy madaniyat va meros Fondi faoliyat yurita boshladi. Davlat rahbarlari kengashining yig'ilishini o'tkazish navbati a'zo davlatlarning nomlaridan kelib chiqib, ingliz alfaviti bo'yicha belgilandi.

Yettinchi bosqich. 2022 yil 11 noyabrda Samarqand shahrida Tashkilotning nomi o'zgargandan keyingi 1-Sammiti bo'lib o'tdi. Ushbu Sammitda TDTga a'zo va kuzatuvchi davlatlar rahbarlaridan tashqari, xalqaro tashkilotlar, OAV vakillari va ekspertlar ishtirok etdi. Samarqand Sammitida O'zbekiston Prezidenti tomonidan iqtisodiy, siyosiy va madaniy sohalarda hamkorlikni rivojlantirishga oid muhim quyidagi 9 ta tashabbus ilgari surildi:

- Xalqaro Turkiy Iqtisodiy forumni o'tkazish;
- Transport sohasidagi o'zaro bog'liqlik Dasturini amalga oshirish maqsadida Qo'shma "Yo'l xaritasini" qabul qilish;
- Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash sohasida ko'p tomonlama Bitim ishlab chiqish va imzolash;
- TDT Kotibiyati va BMTining Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO) o'rtasida keng qamrovli sheriklikni o'rnatish;
- Turkiy agroforum doirasida "SMART" qishloq xo'jaligi xalqaro ko'rgazmasini tashkil etish;
- Turkiy dunyo yoshlarining ilm va innovatsiyalar xalqaro kongressini o'tkazish;
- TDT Bosh kotibining yoshlar masalalari bo'yicha o'rinbosari lavozimini joriy etish;
- TDT Xavfsizlik kengashi kotiblarining navbatdagi yig'ilishini O'zbekistonda tashkil etish;
- TDT doirasida siyosat va xavfsizlik, savdo va investitsiya, qishloq xo'jaligi, energetika, axborot texnologiyalari, turizm, innovatsiya va ta'lim, tibbiyot, yoshlar va boshqa sohalar bo'yicha vazirlar darajasida alohida qo'mitalar tuzish.

Ushbu takliflar O'zbekiston raxbari tomonidan ilgari surilgani jaxon xamjamiyati tomonidan yuksak baholandi, davlatimiz tashqi siyosatidagi ochiq, transparent faolligi yana bir karra namoyon bo'ldi. Qayd etishimiz lozimki, Turkiy Davlatlar tashkilotida O'zbekiston raislik qilgan ushbu yilda hamkorlikni yanada chuqurlashtirishga qaratilgan 100 dan ortiq muhim tadbirlar o'tkazildi.

Sakkizinchi bosqich. 2023 yil 13-14 noyabr kunlari "O'zbekiston-Turkiya" ta'lim Forumi bo'lib o'tdi. Bunda O'zbekiston oliy o'quv yurtlar bilan bir qatorda 40 turkiy universitetlar vakili qatnashdi. Forumda ta'lim, madaniyat, turizm biznesi, tibbiyot, turkiy xalqlarining an'analari, musikasi, adabiyoti, urf odatlarni ommalashtirshga e'tibor qaratildi.

To'qqizinchi bosqich. 2024 yilining fevral oyida Tursiyaning qadimgi shaxar Bursada A.Navoi nomli o'zbek tili va adabiyot Markazi ochildi. O'z navbatida bizning A.Navoi universitetida Yunus Emre tili va adabiyoti Markazi ochilishi rejalashtirildi.

O'ninchi bosqich. 2024 yilning 6-noyabr kuni Qirg'izistonning Bishkek shahrida Turkiy davlatlar tashkilotining 11 sammiti bo'lib o'tdi. O'zbekiston prezidenti Shavkat Mirziyoyev sammit kengashi majlisida nutq so'zladi [4]. Davlat rahbari so'zlariga ko'ra, tashkilot doirasida siyosiy va xavfsizlik masalalarida muloqotlarni tizimli davom ettirish, umumiy manfaatlardan kelib chiqib, xalqaro muammolar bo'yicha yakdil va aniq pozitsiyani faol ilgari surish maqsadga muvofiqdir. Prezident shuningdek, qardosh xalqlarni yanada yaqinlashtirish, yoshlarni ajdodlarga munosib ruhda tarbiyalash maqsadida tashkilotga a'zo mamlakatlar tillarida turkiy xalqlar og'zaki ijodining ko'p jildlik to'plamini nashr etish, birgalikda fundamental tadqiqotlar olib borish, maktablarda turkiy xalqlar va ularning tarixi, etnografiyasi, madaniyati va san'ati bo'yicha fakultativ darslarni yo'lga qo'yish muhimligini ta'kidladi. Sammit yakunida Bishkek deklaratsiyasi, Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan ishlab

chiqilgan “Turkiy dunyo “xartiyasi qabul qilindi, hamkorlikning ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha qator kelishuvlar qabul qilindi hamda turk dunyosining yangi ko‘rinishdagi yagona ramziy bayrog‘i ham tasdiqlandi.

O‘n birinchi bosqich. Gabala shahrida 2025 yil 7 oktyabr kuni Turkiy davlatlar tashkiloti Davlat rahbarlari kengashining yig‘ilishi bo‘ldi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ishtirok etdi. Ta’kidlash lozimki, Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti Ilhom Aliyev raisligida o‘tgan tadbirda Qozog‘iston Respublikasi Prezidenti Qasim-Jomart Toqayev, Qirg‘iz Respublikasi Prezidenti Sadir Japarov, Turkiya Respublikasi Prezidenti Rejep Tayyip Erdog‘an, Turkman xalqining milliy yetakchisi, Turkmaniston Xalq Maslahati Raisi Gurbanguli Berdimuhamedov, Vengriya Bosh vaziri Viktor Orban, Turkiy davlatlar tashkiloti bosh kotibi Kubanichbek Omuraliyev va boshqa rasmiy shaxslar ham qatnashdi. Kun tartibiga muvofiq, tashkilot doirasidagi ko‘p qirrali hamkorlikning bugungi holati va istiqbollari yuzasidan fikr almashildi, amaliy sheriklikning dolzarb masalalari muhokama qilindi. Jumladan, bizning davlat raxbarimiz o‘z nutqida Ozarbayjon Respublikasi Prezidentiga yig‘ilishni yuksak darajasida o‘tkazganligi, Ozarbayjon va Armaniston o‘rtasida imzolangan Tinchlik deklaratsiyasi tashkilot mamlakatlariga savdo, iqtisodiyot, transport va gumanitar sohalarda hamkorlik qilish uchun keng imkoniyatlar ochayotgani alohida ta’kidladi.

Davlatimiz rahbari, shuningdek, Qirg‘iziston Respublikasi Prezidenti Sadir Japarovga TDTga samarali raislik qilgani va hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqishga qo‘shgan munosib hissasi uchun minnatdorlik bildirdi. Sammit kun tartibiga o‘tar ekan, O‘zbekiston yetakchisi bugungi xalqaro vaziyatga qisqacha tavsif berdi. Bu galgi yig‘ilish murakkab geosiyosiy o‘zgarishlar, dunyoda va mintaqada xavfsizlikka tahdidlar kuchayib borayotgan sharoitda o‘tayotgani ta’kidlandi. Shu nuqtai nazardan, global boshqaruv tizimini chuqur isloh qilish va takomillashtirish, BMT va Xavfsizlik Kengashining rolini oshirish, shuningdek, xalqaro ishlarda rivojlanayotgan mamlakatlarning ovozini kuchaytirish zarurligi yana bir bor ta’kidlandi.

Yevroosiyo qit’asida tobora avj olayotgan, oxiri ko‘rinmayotgan mojaro va urushlar Tashkilot davlatlariga salbiy ta’sir ko‘rsatayotgani qayd etildi. G‘azo sektoridagi fojia, Ukraina atrofidagi vaziyat, Eronning yadro dasturi muammosi, Afg‘onistondagi barqarorlik masalalari jiddiy xavotir uyg‘otayotganligi ham ta’kidlandi.

O‘zbekiston rahbari jahonning qudratli davlatlarining adolatli dunyo tartibotini shakllantirish, o‘zaro ishonch va xavfsizlikni ta’minlash borasidagi intilishlari va yangi rejalarini olqishladi. O‘zbekiston yetakchisi qisqa muddatda jadal rivojlanib borayotgan nufuzli xalqaro tuzilmalar qatoriga kirgan Turkiy davlatlar tashkilotining o‘rni va ahamiyati tobora ortib borayotganini, Oliy darajadagi siyosiy muloqot kengayib, o‘zaro ishonch mustahkamlanib borayotgani, qo‘shma loyihalar va gumanitar dasturlar faol amalga oshirilayotgani bundan dalolat berishini ta’kidladi.

Qayd etildiki, bugungi kunda Turkiy davlatlar tashkiloti doirasida 35 dan ortiq yo‘nalishda amaliy hamkorlik qilinmoqda. O‘zaro savdo hajmi barqaror oshib bormoqda va 2030 yilga borib ikki barobar ko‘payishi kutilmoqda. Davlatimiz rahbari o‘z nutqining asosiy qismida amaliy hamkorlikni yanada kengaytirishning aniq masalalariga to‘xtaldi xamda tashkilotning nufuzi va salohiyatini oshirish, yaqin istiqbolda uning samarali hamkorlik maydoni sifatidagi rolini kuchaytirish ustuvor vazifa ekanini ta’kidladi. Ko‘p qirrali sheriklikni kengaytirish va jadallashtirish maqsadida Turkiy davlatlar tashkilotini 2030 yilgacha rivojlantirish strategiyasi va uni amalga oshirish bo‘yicha alohida “yo‘l xaritasi”ni ishlab chiqish taklif qilindi. Ushbu hujjatlarda quyidagi aniq yo‘nalish va chora-tadbirlarni aks ettirish zarurligi qayd etildi[5]:

Birinchidan, savdo-iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish va sanoat kooperatsiyasini chuqurlashtirish. Yaqin istiqbolda TDT doirasida savdo, biznes va o‘zaro investitsiyalar uchun eng qulay sharoitlar, huquqiy asos va infratuzilma yaratishni nazarda tutadigan Yangi iqtisodiy imkoniyatlar makonini shakllantirish. Amaliy hamkorlikni izchil rivojlantirish va aniq loyihalarni ishlab chiqish, xususan, Turkiy investitsiya jamg‘armasi doirasidagi rejalarni kelishish maqsadida Turkiy davlatlarning iqtisodiy sheriklik bo‘yicha doimiy kengashini ta’sis etish muhimligi qayd etildi. Buning uchun:

- Turkiy davlatlar Sanoat alyansini tuzish va shu orqali mashinasozlik, tog‘-kon sanoati, elektrotexnika, neft-kimyo, farmatsevtika, yengil, oziq-ovqat sanoati, qurilish materiallari ishlab chiqarish sohalarida yetakchi kompaniyalarning kooperatsiya loyihalarini ilgari surishga ko‘maklashish;

- o‘zaro savdo hajmini yanada oshirish va texnik reglamentlarni yaqinlashtirish maqsadida “Turkiy yashil yo‘laklar” elektron tizimini joriy etish;

- “xomashyo - qayta ishlash - ilm va texnologiyalar - tayyor mahsulot” tamoyili asosida amaliy hamkorlik dasturini qabul qilish muhimligi ta’kidlandi.

Ikkinchidan, oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash. Mavjud salohiyatni hisobga olgan holda, TDT mamlakatlari organik qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish va yetkazib berish bo‘yicha jahon yetakchilariga aylanishi mumkin.

Sifatli va xaridorgir organik mahsulotlar ishlab chiqarish uchun ilmiy-tadqiqot va seleksiya, sanoat kooperatsiyasi va logistika aloqalarini kuchaytirish zarurligi ta’kidlandi.

Uchinchidan, transport jihatidan o‘zaro bog‘liqlikni kuchaytirish va xalqaro tranzit yo‘laklarini rivojlantirish sohasida muvofiqlashtirilgan siyosatni amalga oshirish. Mamlakatimiz yetakchisi O‘rta koridorni izchil rivojlantirish borasidagi rejalarni qo‘llab-quvvatlab, ushbu yo‘nalishning raqobatbardoshligini ta’minlash va biznes hamjamiyati uchun eng qulay sharoitlar yaratish muhim ekanini ta’kidladi. O‘rta koridor qurilayotgan Xitoy - Qirg‘iziston - O‘zbekiston temir yo‘li va istiqbolli Transafg‘on yo‘lagi bilan bog‘lansa, ulkan mintaqada ko‘p tarmoqli, strategik magistral yo‘llar tizimi yaratilishi ma’qullandi.

Transport sohasiga oid bu tashabbuslarning barchasi 12 noyabr kuni Toshkent shahrida bo‘lib o‘tgan Multimodal tashuvlar bo‘yicha xalqaro forum doirasida atroflicha muhokama qilindi.

To‘rtinchidan, O‘zbekiston Prezidenti keng ko‘lamli sanoat va infratuzilma loyihalarini amalga oshirish uchun samarali moliyaviy vositalarni joriy etish va Turkiy investitsiya jamg‘armasi faoliyatini kengaytirish, ITB, ETTB va boshqa xalqaro hamda milliy moliya institutlari bilan Strategik hamkorlik dasturini qabul qilish tashabbusini ilgari surdi.

Beshinchidan, barqaror rivojlanishning muhim drayverlariga aylanayotgan sun’iy intellekt, raqamlashtirish va kreativ iqtisodiyotni rivojlantirish.

Oltinchidan, “Jaholatga qarshi – ma’rifat” tamoyili asosida ilm-fan va ta’lim sohasidagi hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqish.

2025-2026 yillarda mamlakatimiz 100 dan ortiq ta’lim muassasalarini birlashtirgan Turkiy universitetlar ittifoqiga raislik qilishi ta’kidlandi.

O‘zbekiston Prezidenti ilm-fan va ta’lim sohalaridagi hamkorlikni mustahkamlash, iqtidorli olimlarning tadqiqotlarini rag‘batlantirish maqsadida mamlakatimizda Turkiy davlatlar xalqaro universiteti o‘z faoliyatini boshlayotganini ma’lum qildi. Davlatimiz rahbari uning negizida Qo‘shma tadqiqotlarni qo‘llab-

quvvatlash dasturini ishlab chiqishni taklif etdi.

Yettinchidan, yoshlar orasida yot va buzg‘unchi g‘oyalar tarqalishining oldini olish. Shu munosabat bilan Turkiy davlatlar makonida ekstremistik va radikal mafkuraga qarshi kurashish bo‘yicha Harakatlar rejasini qabul qilish taklif etildi.

Bundan tashqari, Tashkilot doirasida yoshlar o‘rtasida ekologik bilimlar bo‘yicha qo‘shma chora-tadbirlarni ishlab chiqish muhim ekani ta’kidlandi.

O‘zbekiston yetakchisi yana bir muhim masalaga e’tibor qaratdi.Keyingi yilda buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiyning 585 yilligi hamda ulug‘ ozarbayjon shoiri Nizomiy Ganjaviy tavalludining 885 yilligini keng nishonlash va ijodlarini keng targ‘ib etish borasida “Nizomiy Ganjaviy va Alisher Navoiy ijodi – Turkiy dunyo ma’naviy hayotida” mavzusida xalqaro ilmiy konferensiya o‘tkazishni taklif etildi.

Xulosa qilib aytganda, Turkiy Davlatlar Tashkilotining xalqaro maydondagi o‘rnini taxlil qilar ekanmiz, quyidagi “Turkiyaning “Adolat va taraqqiyot” partiyasi tomonidan “Turk dunyosi nigohi” Dasturi xujjatiga e’tiborimizni qaratishimiz lozim bo‘ladi [6]. Dasturda qisqa, o‘rta va uzoq muddatli maqsadlar belgilangan bo‘lib, turkiy davlatlar orasida ko‘p qirrali hamkorlikni institutlashtirish, energetika, savdo, transport, texnologiya va madaniyat sohalarida integratsiyani chuqurlashtirish hamda global darajada birgalikda harakat qilish salohiyatini oshirish maqsad qilingan. Hujjat turkiy dunyoni global tizimda yanada faol faktorga aylantirish strategiyasi asosida tayyorlangan. Qardosh mamlakatlarning umumiy maqsadlari, global qarashlari va strategik yondashuvlari aks ettirilgan. Turkiy davlatlar jahon arenasida yuksalayotgan kuch markazi sifatida shakllanishi ustuvor maqsad qilingan. O‘zaro savdoni rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar qatorida qo‘shma elektron tijorat platformalarini yaratish, umumiy bozor mexanizmlarini shakllantirish, “Turk dunyosi” brendi ostida ishlab chiqarilgan mahsulotlarning xalqaro maydonda tan olinishini ta’minlash, rejalashtirilgan. Turkiy dunyo terrorizmga qarshi kurash markazi, Kiberxavfsizlik agentligi, strategik poytaxtlarda qo‘shma diplomatik vakolatxonalarni ochish, qo‘shma konsullik nuqtalarini tashkil etish zarurati ta’kidlangan. Qardosh xalqlar yoshlari ishtirokida Yoshlar Majlisini tuzish imkoniyati tilga olingan. Turkiy dunyo umumiy til platformasi, Umumiy media platformasi, Umumiy tarix komissiyasi, Turkiy dunyo muzeyi, vizasiz rejim, umumiy shaxsni tasdiqlovchi karta orqali erkin harakatlanish kabi maqsadlar ham hujjatdan o‘rin olgan.

Demak, Turkiy Davlatlar tashkiloti oldiga qo‘ygan strategik maqsad va vazifalar orqali o‘z zimmasiga xalqaro maydonda yuksak mavqeini egallashga qaratganligi ma’lum bo‘lmoqda.

References

1. Safoyev S.S. Markaziy Osiyoda kechayotgan geosiyoiy jarayonlar va mintaqaning hozirgi dunyo halqaro munosabatlar tizimida tutgan o‘rni. /Halqaro munosabatlar// – Toshkent, 2004 y., 4-9 bb.
2. Turkiy davlatlar tashkiloti: A’zolar chuqur integratsiyaga kirisha oladimi? 03.11.22. https://kun.uz/ 16698539.
3. Imomov B.X. O‘zbekiston va Turkiya respublikalari o‘rtasidagi iqtisodiy va madaniy aloqalar (1991-2018). Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori diss. Avtoreferati. –T., 2022 y., 53 b.
4. “Turkiy investitsiya forumini tashkil etishni taklif qilamiz va uning ilk tadbirini O‘zbekistonda o‘tkazishga tayyormiz” – Sh. Mirziyoyev 6.11. 2024. https://oyina.uz/uz/posts/25483
5. https://president.uz/uz/lists/viyew/8550
6. Farrux JABBORBEK. “Turkiy dunyo asri”. “XXI asr” gazetasi, 2025-yil, 50 (1152)-son.